GEOGRAFIYA

1.

Mutaxassislar Nukus shahrining aholisini hudud bo‘yicha joylashuvini, infratuzilmasini, sanoat korxonalarining joylashuvini o‘rgandilar.

Tadqiqotlar geografiya fanining qaysi yo‘nalishi doirasida olib borilganligini aniqlang.

A) *geourbanistika* B) *landshaftshunoslik*
C) *etnogeografiya* D) *geomorfologiya*

2.

Topografik xaritalarning har bir varag‘i kilometrli kataklarga bo‘lingan bo‘ladi. Katakni tomoni 5 cm ga teng bo‘lgan **topografik xaritaning mashtabini** aniqlang.

A) *1:100 000* B) *1:50 000* C) *1:250 000*
D) *1:20 000*

3.

Yer yuzida iqlim mintaqalarining vujudga kelishi birinchi navbatda **qaysi omilga bog‘liq** ekanligini aniqlang.

A) *yer yuzasining holati*
B) *relyef*
C) *okean oqimlari*
D) *havo massalarining hukmronligi*

4.

Sahroning o‘rtasida gidrogeologlar 150 m chuqurlikgacha yerni burg‘ilagandan so‘ng yer ustiga chuchuk va muzday suv fontan bo‘lib otilib oqa boshladi. Tadqiqotlar natijasida otilib chiqayotgan bu suvni tarkibida tuz va kimyoviy elementlar (Ca, Na, Cl) me’yoridan ortiq emasligi va kundalik iste’molga yaroqliligi aniqlandi.

Topilgan suv manbayi yer osti suvining qaysi turiga mansub ekanligini belgilang.

A) *mineral suv* B) *artezian suv*
C) *termal suv* D) *grunt suvi*

5.

Kemalarning serqatnovligi bo‘yicha yetakchi bo‘g‘izlardan biri – **La-Mansh** qaysi hududlarni bir-biridan ajratib turadi?

A) *Yevropa va Afrika qit’alari*
B) *Skandinaviya yarimoroli va Yevropaning kontinental qismini*
C) *Yevropa va Osiyo qit’alari*
D) *Britaniya oroli va Yevropa qit’asi*

6.

Shimoliy Amerika va Yevropa iqlimiga ta’sir qilib, shimol tomondagi muz va aysberglarning erishiga hamda **Angliya qirg‘oqlarida tumanli kunlar ko‘payishiga sabab bo‘ladigan okean oqimini** aniqlang.

A) *Passat* B) *Musson* C) *Kurosio*
D) *Golfstrim*

7.

Sahroyi Kabir cho‘lida izlanishlar olib borgan geologlar bir sutka davomida u yerning tabiiy sharoitida kuzatishgan **o‘zgarishni** aniqlang.

A) *kunduzi harorat juda yuqori bo‘lishi, kechasi keskin pasayib ketishi*
B) *kunduzi havo juda quruq, kechasi esa juda nam bo‘lishi*
C) *kechasi hamsin shamoli, kunduzi samum shamoli kuchli esishi*
D) *haroratning tebranishi kecha va kunduzda ham deyarli farq qilmasligi*

8.

Matnni o‘qing.

“Materikning asosiy qismini qadimgi mustahkam platformaning ustida tarkib topgan tekislik va yassitog‘liklar tashkil etadi. Tektonik faol bo‘lgan sharqiy qismida harakatdagi vulqonlar uchraydi va zilzilalar bo‘lib turadi”.

Matndagi ma’lumotlar geologik tuzilishiga xos bo‘lgan materikni toping.

A) *Janubiy Amerika* B) *Yevrosiyo*
C) *Afrika* D) *Shimoliy Amerika*

9.

Matnni o‘qing.

“Hududida qishda arktika, yozda esa mo‘tadil mintaqaning havo massalari hukmronlik qiladi. Shu sababdan o‘rtacha havo harorati qishda –25 –30° C ni, yozda +22° C ni tashkil etadi. Shimolida tundra-gleyli, podzol va botqoq tuproqlar, janubiy qismida esa unumdor qora tuproqlar tarqalgan. Shimolidagi bir qancha kichikroq orollarda tarkib topgan arktika cho‘llaridan boshlab janubda dashtgacha tabiat zonalari almashinib boradi”.


Matndagi tavsif bo‘yicha Yevrosiyoning tabiiy geografik o‘lkasini aniqlang.

A) *Garbiy Sibir* B) *Sharqiy Yevropa*
C) *O‘rta Yevropa* D) *Sharqiy Sibir*

10.

“Bu tabiat zonasida siyrak o‘rmonlar (evkalipt, akatsiya, butilkasimon daraxtlar), o‘t hamda buta o‘simliklar mavjud. Kenguru, vombatlar (xaltali kemiruvchilar), xaltali chumolixo‘r, suv havzalarida qushlar ko‘p”.

Tavsifi berilgan hudud yozuvsiz xaritada qaysi raqam bilan belgilanganligini toping.



A) *4* B) *2* C) *3* D) *1*

11.

O‘rta Osiyo hududida paleogen davrida yuz bergan **geologik jarayonni** aniqlang.

A) *dengiz chekinib quruqlikka aylangan*

B) *tog‘lar qayta ko‘tarilgan*

C) *tog‘lar yemirilib pasayib qolgan*

D) *eng yosh tog‘lar hosil bo‘lgan*

12.

Tyanshan tog‘lari qaysi erada qaytadan ko‘tarilib yosharganligini aniqlang.

A) *mezozoy*

B) *kaynozoy*

C) *paleozoy erasining 2-yarmi*

D) *paleozoy erasining 1-yarmi*

13.

Aydarko‘l ko‘lining shimoliy qirg‘og‘idan janubiy qirg‘og‘iga kesib o‘tgan turistlar **qaysi tabiiy geografik okrug hududiga** kelib qolganini toping.

A) *Quyi Zarafshon* B) *Qizilqum*
C) *O‘rta Zarafshon* D) *Mirzacho‘l*

14.

“Iqlimi kontinental, qishi davomli va sovuq, yozi nisbatan quruq va issiq bo‘ladi. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 80–100 mm ga teng. Hududida zovur suvlarining oqizish tufayli bir necha ko‘llar vujudga kelgan. Yerosti suvlari yuza (1,0–2,5 m) joylashgan bo‘lib ularning suvi sho‘r. Hududida eng keng tarqalgan tuproq – o‘tloq-voha tuprog‘idir. Bu tuproq alluvial yotqiziqlar ustida vujudga kelgan bo‘lib, chirindi miqdori 2 foiz atrofida. Hududida to‘qay o‘simliklari keng tarqalgan”.

Matnda tasvirlangan tabiat sharoiti qaysi tabiiy geografik okrugga oid ekanligini aniqlang.

A) *O‘rta Zarafshon* B) *Mirzacho‘l*
C) *Quyi Amudaryo* D) *Qizilqum*

15.

Chirchiq-Ohangaron TABIIY GEOGRAFIK OKRUGIGA oid ma'lumotlarni aniqlang.

A) *Okrug tekisligining yuzasi past-balandliklardan iborat bo'lib, markaziy qismida daryoning qadimiy o'zanlarida botiqlar mavjud. Bu o'zansimon botiqlar orasida balandliklar (tepachalar) joylashgan. Tekisligining shimoli sharqida daryoning uchta terrasasi joylashib, bir-biridan 2–3 m balandlikda turadi.*

B) *Okrug hududi tog'li va tekislik qismlardan iborat. Tog'lari kaledon va gersin tog' burmalanish bosqichlarida ko'tarilgan. Tog' etaklari va daryo vodiylarida shag'al, qum va gil qatlamlari keng tarqalgan. Hozirgi relyefining vujudga kelishida yangi tektonik jarayonlarning ahamiyati katta.*

C) *Okrugning tekislik qismidagi vodiy sharqdan g'arbga pasayib boradi. Vodiysining yer tuzilishi yassi tekislikdan iborat bo'lib, shimol va janubdan uchta qadimgi qayirlar bilan o'ralgan. Bu qayirlar yumshoq lyossimon jinslardan tarkib topgan. Soy va yog'in suvlari bu jinslarni yuvib juda ko'p jarlar hosil qilgan.*

D) *Okrug hududininhg relyefi shimol va shimoli-sharq tomon ko'tarilib boradi. Tekislik qismida qoldiq tog'lar va platolar uchrab turadi. Tog'li qismi kristalli slanes, ohaktosh, marmar, granit kabi jinslardan tarkib topgan. Tekislik qismining yuzasini qum, gil, konglomerat jinslar qoplab olgan.*

16.

Bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan yoki bir xil xizmat turini ko'rsatadigan **korxonaning tashkiliy shaklini** aniqlang.

A) *ixtisoslashuv* B) *kombinat* C) *majmua*
D) *kooperativlashuv*

17.

Surxondaryo viloyatining sanoatiga oid **to'g'ri ma'lumotlarni** aniqlang.

A) *Oldinlari viloyat iqtisodiyotida ASM muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Viloyat iqtisodiyoti g'allachilik, ingichka tolali paxtachilik, subtropik mevalar yetishtirish, uzumchilik, qo'ychilik va pillachilikka ixtisoslashgan. Hozirgi kunda sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlanmoqda. Rangli metallar rudalarini qayta ishlash korxonasi, yirik sement zavodi ishga tushirildi.*

B) *Viloyat xo'jalik negizini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Ekin maydonlarining kattaligi jihatidan viloyat respublikada oldingi o'rinda turadi. Ekin maydonlarining deyarli yarmiga paxta ekiladi. Don, ozuqa, meva-sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish ham dehqonchiligining ixtisoslashuvidir. Sanoatning asosiy tarmoqlariga elektroenergetika (yirik IES), yengil sanoat, qurilish materiallari kiradi.*

C) *Elektroenergetika (yirik IES), rangli metallurgiya (kon-metallurgiya kombinati), kimyo (elektr kimyo kombinati), qurilish materiallari sanoati (sement zavodi) viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Viloyat elektr energiyasini ishlab chiqarish miqdoriga ko'ra mamlakatda oldingi o'rinlardan birini egallaydi.*

D) *Sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda og'ir sanoatning salmog'i ancha katta. Neftni qayta ishlash, kimyo va energetika sanoatining rivojlanganligi bo'yicha respublika miqyosida ajralib turadi. Viloyatda sanoat korxonalari mujassamlashgan 1 ta sanoat rayoni va 2 ta sanoat tugunlari shakllangan.*

18.

Dehqonchilikda ko'p **qo'l mehnati talab qiluvchi ekinni** aniqlang.

A) *makkajo'xori* B) *bug'doy* C) *arpa*
D) *sholi*

19.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining yuqoriligi sabab mamlakat asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘z resurslari hisobiga qondirmoqda. Jami ekin maydonlarining asosiy qismi donli ekinlar bilan band. Shuningdek, kartoshka, sabzavot, meva, poliz ekinlari, uzum, tamakining yalpi hosili bilan jahon miqyosida ajralib turadi.

Matndagi iqtisodiyot tavsifi qaysi mamlakatga oid ekanligini aniqlang.

A) *Hindiston* B) *AQSh* C) *Braziliya*
D) *Xitoy*

20.

Mintaqada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyingi ikkinchi o‘rinda kimyo va neft-kimyo sanoati turadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kaliy va osh tuzlari, oltingugurt va boshqa shu kabi xomashyodan foydalanilardi. Qit’ada neft va tabiiy gaz konlarining ochilishi neft-kimyo tarmog‘ining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Yirik daryolarining quyilish qismlarida joylashgan port shaharlarida yirik neftni qayta ishlovchi markazlar barpo etildi.

Mintaqani aniqlang.

A) *Avstraliya va Okeaniya* B) *Osiyo*
C) *Yevropa* D) *Janubiy Amerika*

21.

Nigeriya davlatining iqtisodiyotiga oid **to‘g‘ri ma’lumotlar** berilgan javobni belgilang.

A) *qishloq xo‘jaligi (yeryong‘oq, makkajo‘xori, sorgo, paxta, tabiiy kauchuk, sholi yetishtirish, qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik) – aholi bandligining asosiy sohasi hisoblanadi*

B) *mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ko‘pligi bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida ajralib turadi*

C) *tabiiy gaz eksporti – mamlakat iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadining bosh manbayi hisoblanadi*

D) *YIMning umumiy hajmi bo‘yicha Afrikada JAR dan keyin 2-o‘rinda turadi, lekin YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori ancha past*

22.

Yer yuzasidagi barcha sug‘oriladigan yerlarning 3/4 qismi **qaysi qit’a mamlakatlarining hissasiga to‘g‘ri kelishini** aniqlang.

A) *Osiyo* B) *Avstraliya* C) *Afrika*
D) *Shimoliy Amerika*

23.

Subregion seysmik faol mintaqada joylashganligi sabab hududida harakatdagi vulqonlar bor va zilzilalar bo‘lib turadi. Yozi issiq, birmuncha quruq, qishi esa iliq va yog‘inli. Ayrim hududlarda suv tanqisligi mavjud.

Matndagi ma’lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini aniqlang.

A) *Janubiy Osiyo* B) *Janubiy Yevropa*
C) *Sharqiy Osiyo* D) *O‘rta Yevropa*

24.

Pokiston mamlakatining tabiiy sharoiti va resurslariga oid **to‘g‘ri ma’lumotlar** berilgan javobni toping.

A) *yoqilg‘i resurslari iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadining bosh manbayi hisoblanadi*

B) *hududining katta qismini Arabiston dengiziga quyiladigan Hind daryosining vodiysi egallaydi*

C) *hududining asosiy qismida issiq va nam tropik iqlim hukmronlik qiladi*

D) *relyefi, asosan, bir nechta tog‘ tizmalari va ular orasidagi botiqlardan iborat*

25.

Geoekologiyaga oid **to‘g‘ri ma’lumotni** aniqlang.

A) *Biror daraxtzorning kesilishi oqibatida shu hududda yerosti suvlari sathining ko‘tarilishi kuzatiladi.*

B) *O‘zbekistonda ifloslangan suvlarning eng katta qismi sanoat tarmog‘ining hissasiga to‘g‘ri keladi.*

C) *Cho‘llashish jarayonining asosiy sabablaridan biri chorva-mollarining tartibsiz boqilishidir.*

D) *Agroiqlimiy resurslar tabiiy resurslarning tiklanmaydigan guruhiga mansub.*

26.

Tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichi bo‘yicha Markaziy Osiyoda **oxirgi o‘rinda turadigan davlatni** aniqlang.

A) *Qirg‘iziston* B) *Tojikiston*
C) *Turkmaniston* D) *O‘zbekiston*

27.

Yirik shaharlarning o‘sishi ayrim hollarda shahar chekkalarida qishloqdan ko‘chib kelgan past daromadli aholi xarob kulbalarining zichlashib borishi ko‘rinishida kechadi.

Berilgan ma’lumotda aholi geografiyasining qaysi tushunchasi namoyon bo‘lgan.

A) *megalopolis* B) *soxta urbanizatsiya*
C) *aglomeratsiya* D) *demografik siyosat*

28.


Okeaniyadagi Tuvalu orolining 5000 aholisi 2021-yilda okean suvi sathining ko‘tarilishi sababli Yangi Zelendiyaga ko‘chirildi.

Berilgan ma’lumotda aholi geografiyasining qaysi tushunchasi namoyon bo‘lgan.

A) *aholi takror barpo bo‘lishi*
B) *migratsiya*
C) *demografik siyosat*
D) *urbanizatsiya*

29.


Xaritada yulduzcha bilan belgilangan bo‘g‘izga Shimoliy Amerika materigining **qaysi tadqiqotchisining nomi qo‘yilgan**?



A) *G.Gudzon* B) *A. Makkenzi* C) *V.Bering*
D) *J.Kabot*

30.


Janubiy Amerika materigining yozuvsiz xaritasidan 30° j.k. chizig‘i **qaysi geografik obyekt ustidan** KESIB O‘TMAGANligini aniqlang.



A) *Parana daryosi* B) *Laplata pasttekisligi*
C) *Patagoniya o‘lkasi* D) *And tog‘lari*

31.


Chizma-xaritada **Qizilqum cho‘li** tabiiy rayoni qaysi raqam bilan belgilanganligini aniqlang.



A) *2* B) *3* C) *4* D) *1*

32.

Chizma-xaritada I raqam bilan belgilangan **tog‘ tizmasini** aniqlang.



A) *Chaqchar* B) *Hisor* C) *Zarafshon*
D) *Zirabuloq*

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.


Ob-havoning biror joyga xos bo‘lgan ko‘p yillik rejimi (holati) shu joyning iqlimi deyiladi. Yer yuzasining iqlimi xilma-xil, bunga geografik kenglik, havo massalari, relyef, yer yuzasining holati, okean oqimlari kabi omillar ta’sir etadi. Bu omillarga bog‘liq holda iqlim tiplari shakllangan.

33. **Hindiston yarimoroliga xos iqlim tipini aniqlang.** **34.** **Fransiyaning shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy okeanbo‘yi hududlarida shakllangan iqlim tipini aniqlang.** **35.** **Qozog‘iston tabiiy geografik kichik o‘lkasiga xos bo‘lgan iqlim tipini aniqlang.**	A) *subtropik quruq iqlim* B) *tropik iqlim* C) *mo‘tadil kontinental iqlim* D) *musson iqlim* E) *subtropik nam iqlim* F) *mo‘tadil dengiz iqlim*

BMBA

36.

AB nuqtalar yo‘nalish azimuti 295° ga teng.



a) AC nuqtalarning yo‘nalishi ufqning qaysi tomoniga mos kelishini aniqlang.

Javob: a) _____

b) AC yo‘nalishi bilan harakatlanayotgan yo‘lovchi o‘z yo‘nalishini azimut bo‘yicha necha gradusga o‘zgartirganda yo‘nalishi ufqning janub tomoniga mos kelishini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37.

Jadvaldagi ma’lumotlar asosida **topshiriqlarni bajaring**.

Toshkent aeroportidan aviaqatnovlar jadvali			
Borib tushadigan joy	Uchib ketish (Toshkent mintaqa vaqti)	Qo‘nish (qo‘ngan joydagi mintaqa vaqti)	Qo‘ngan joydagi soat mintaqasi
A	23:45 24.11.2023	01:05 25.11.2023	II
B	22:25 24.11.2023	04:10 25.11.2023	VII
C	22:10 24.11.2023	01:10 25.11.2023	IV

Izoh: Toshkent shahri V soat mintaqasida joylashgan.

a) Toshkent aeroportidan uchgan samolyot B punktiga borib qo‘nganda Toshkentdagi mintaqa vaqtini aniqlang.

Javob: a) _____


b) Toshkentdan punktlarga eng uzoq davom etadigan parvoz vaqtini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga 00:00 (soat va daqiqa) shaklida ko‘chirib yozing.

38.

Grafik va jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib topshiriqlarni bajaring.



Havo harorati (°C)	1 m^3 havo o'zida tutib tura oladigan eng ko'p suv bug'i miqdori (g)
0	5
10	9
20	17
30	30
40	51

a) Soat $07^{\underline{00}}$ da havoning nisbiy namligi necha g/m^3 ni tashkil qilganligini aniqlang.

Javob: a) _____

b) Soat $01^{\underline{00}}$ da 1 m^3 havoning namga to'yinishi uchun necha gramm suv bug'ining lozimligini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

39.

Tog' cho'qqisining mutlaq balandligi 3950 metrga teng. Tog' yonbag'ridagi alpinistlar qarorgohi va tog' etagidagi havo haroratlarining farqi 10,2 °C ga teng. Dengiz sathida normal (me'yordagi) havo bosimi qayd etilganda, tog' etagida havo bosimi 695 mm Hg ga teng bo'lgan.

a) Alpinistlar qarorgohi va tog' cho'qqisi orasidagi havo haroratlarining farqini aniqlang.

Javob: a) _____

b) Tog' etagi va tog' cho'qqisi orasidagi nisbiy balandlikni aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40.

Matnni o‘qing:

“Yevrosiyoning subtropik iqlim mintaqasi g‘arbda okean sohillaridan boshlanib, sharqda okean sohillarigacha davom etadi. Yozda tropik havo, qishda esa mo‘tadil havo massalari hukmronlik qiladi. Bu yerda O‘rta dengizbo‘yi, nam subtropik, subtropik kontinental va subtropik musson iqlim tiplari shakllangan”.

Quyidagi **topshiriqlarni bajaring**.

a) Iliq (havoning o‘rtacha harorati 0 °C dan yuqori) va nam (yomg‘ir tez-tez yog‘ib turadi) qish, issiq va nisbatan quruq yoz Yevrosiyo subtropik mintaqasining qaysi iqlim tipiga xos ekanligini aniqlang.

Javob: a) _____

b) Subtropik mintaqasida joylashgan Ozarbayjonning Kaspiybo‘yi tekisliklarida shakllangan iqlim tipini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

41.

Janubiy iqtisodiy rayonda tabiiy gaz, neft va ko‘mir konlari negizida mamlakatimizdagi yirik yoqilg‘i-energetika bazasi barpo etilgan. Hozirgi kunda rayonda sanoatning yangi tarmoqlari – rangli metallurgiya, qurilish materiallari, kimyo rivojlanmoqda.

a) Mustaqillik yillarida iqtisodiy rayon hududidagi Dehqonobodda barpo etilgan korxona qaysi sanoat tarmog‘iga tegishli ekanligini aniqlang.

Javob: a) _____

b) Iqtisodiy rayonda turkiyalik hamkorlar bilan qurilgan qurilish materiallari sanoatining korxonasini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

42.

Matndagi ma'lumotlar asosida **topshiriqlarni bajaring**.

"Tojikiston zamini turli ma'danlar zaxiralariga boy. Xususan, uning hududida uran, oltin, kumush, polimetall rudalarining yirik konlari bor. Hududida zaxiralari uncha katta bo'lmagan osh tuzi, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz kabi foydali qazilmalarning konlari ham mavjud. Hududining 90% dan katta qismini tog'lar egallagani bois yer resurslariga boy emas. Biroq, Tojikiston jahonning suv va gidroenergetika resurslari bilan eng yaxshi ta'minlangan davlatlaridan biri hisoblanadi".

a) Tojikistonda gidroenergetika resurslari bilan birga tabiiy resurslarning hududiy birikmasini tashkil etadigan foydali qazilmalarni aniqlang.

Javob: a) _____

b) Tojikistondagi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy resurslarning hududiy birikmasi negizida rivojlanishi mumkin bo'lgan sanoat tarmog'ini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

BMBA

43.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib **test topshiriqlarning yechimini toping**.

Mamlakatning demografik ko'rsatkichlari, 2022-y.		
Mamlakat aholisi, (mln kishi)	56,7	yil
Qishloq aholisi, %	42	boshida
Tug'ilish	17	yil davomida
O'lim	6	har 1000
Immigratsiya	2	kishiga
Emigratsiya	5	nisbatan

a) 2022-yil boshida shahar aholisi soni necha kishiga teng bo'lganligini aniqlang.

Javob: a) _____


b) 2022-yilda mamlakat aholisi necha kishiga ko'payganligini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44.

Grafikdagi ma'lumotlardan foydalanib topshiriqlarni bajaring.



a) Sahar aholisi soni 01.01.2000-yilda 1 455 000 kishiga teng bo'lgan. Shu yilda shahar aholisi tabiiy o'sish hisobiga necha kishiga ko'payganligini aniqlang.

Javob: a) _____


b) Sahar aholisi soni 01.01.2000-yilda 1 455 000 kishiga teng bo'lgan. Shu yilda shahar aholisi necha kishiga ko'payganligini aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45.

Yozuvsiz xarita asosida topshiriqlarni bajaring.



a) Atlantika okeanining Karib dengizi va Tinch okeanga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan Janubiy Amerika davlatini aniqlang.

Javob: a) _____

b) Yozuvsiz xaritada 2 soni bilan belgilangan davlatning ma’muriy-hududiy tizimi (davlat tuzilishi shakli) ni aniqlang.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.